

O'qitiladigan fanlar

Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1. Matematik usullar va modellar	<p>Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ob'ekt, model tuzish, modellashtirish, algoritmlash, dastur tuzish usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - Amaliy dasturlar, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyasini; - funktsional va hisoblash masalalarini yechish modellarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - dasturlash va hisoblash texnikasi hamda dasturiy ta'minot imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
2. Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish	<p>"Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish" fani talabalarni axborot jarayonlari va ularni matematik modellashtirish masalalariga uslubiy yondashishga o'rgatadi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifasini bajaradi, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar olishlariga yordam beradi.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - axborot, uni saqlash, ularga ishlov berish va ularni uzatish usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - ma'lumotlar bazalarini, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyasini; - funktsional va hisoblash masalalarini yechish modellarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - dasturlash va hisoblash texnikasi hamda dasturiy ta'minot imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; - Oliy matematika va fizika bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lishi kerak.
3. Ekonometrika	<p>Fanning asosiy maqsadi talabalarda murakkab iqtisodiy hodisalar va jarayonlardagi bog'lanishlarni miqdoriy ifodalashni iqtisodiy ob'ektlar misolida modellashtirish, ularni kompyuterda yechish va olingan natijalarni iqtisodiy tahlil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarga iqtisodiyot va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlarni an'anaviy matematik-statistika va maxsus ishlab chiqilgan usullardan foydalanish orqali iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishlarni tahlil qilishni o'rgatish vazifalarini bajaradi.</p>

-
4. Iqtisodiyotda ekonometrik modellarni qo'llash
- Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:
- ekonometrik va matematik modellar, ularning bir-biridan farqi, iqtisodiyotda ekonometrik modellarni qo'llashning ahamiyati, iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy tahlil qilish, ekonometrik modellarni tuzish yo'llari va bosqichlari, modellarni yechish usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
 - matematik statistik usullari, kovariatsiya va korrelyatsiyani hisoblash qoidalari, bir o'lchovli chiziqli regressiya, ko'p o'lchovli chiziqli regressiyada noma'lum parametrlarni aniqlash, ko'p o'lchovli regressiya tahlilida vujudga keladigan muammolar va ularni hal qilish yo'llari, ekonometrik modellar yordamida prognoz qilishni, ekonometrik modellarni yechish usullarini bilishni va ulardan foydalana olishi;
 - iqtisodiy jarayonni nazariy jihatdan tasvirlashi, ekonometrik model ko'rinishini tanlash, modellarni yechish usullarini tanlay olish, ekonometrik modellar yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiy yechimni tahlil qilish, uning xususiyatlarini baholash, olingan yechimni biror-bir iqtisodiy jarayonga tadbiiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
-
5. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash
- Fan bo'yicha magistrning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Magistr:
- "Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash" o'uv fanini o'zlashtirish natijasida magistr:
- iqtisodiy o'sish va rivojlanishni prognozlash va tadbiiq qilish, qaror qabul qilish mexanizmining nazariy va amaliy asoslarini, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish imkoniyatlarini, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy jarayonlarni prognozlash va tahlil qilishning matematik usullarini kompyuterda maxsus dasturlar asosida hisoblash haqida tasavvurga ega bo'lishi;
 - aholi turmush darajasini ekonometrik tahlil va prognozini amalga oshirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni, iqtisodiy prognoz va tahlil jarayonlarining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlab olish, olingan natijalarni iqtisodiy tahlil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
 - fanni o'rganish yuzasidan magistrlar iqtisodiy jarayonlar va ularning milliy iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati, iqtisodiy prognozlash va rivojlanish tadqiqotlarining roli, iqtisodiy rivojlanish va tahlilda matematik modellarni tuzish usullari, ushbu modellarni tuzish uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar bilan ishlash va respublikamizning istiqboldagi rivojlanishini kengaytirish imkoniyatlari to'g'risida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
-